

AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILAYOTGAN JINOYATLARNI TERGOV QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Abdurahmonov Asilbek Abdullajon o'g'li
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
3-o'quv kurs 320-guruh kursanti

ANOTATSIYA

Ushbu maqola orqali muallif ayol tushunchasini, ayolning muqaddas siymosini, ayollarga bo'lgan hurmatni qanchalik ahamiyatga ega ekanligini, ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning turlarini, adabiyotlarda ayollar jinoyatchiligiga oid keltirilgan jummalarni va ular tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarni kriminologik tahlilini yoritib o'tgan.

Kalit so'zlar: ayol, ayollar jinoyatchiligi, retsidiv jinoyatchilik, professional jinoyatchi, firibgarlik, tovlamachilik.

АННОТАЦИЯ

В этой статье автор разъяснил понятие женщины, сакральную фигуру женщины, насколько важно уважать женщину, виды преступлений, совершаемых женщинами, приговоры, упоминаемые в литературе о женской преступности, и криминологический анализ преступлений, совершенных ими.

Ключевые слова: женщина, женское преступление, рецидив, профессиональный преступник, мошенничество, вымогательство.

ANNOTATION

Through this article, the author explained the concept of woman, the sacred figure of a woman, how important it is to respect women, the types of crimes committed by women, the sentences mentioned in the literature about women's criminality and the criminological analysis of the crimes committed by them.

Key words: woman, women's crime, repeat crime, professional criminal, fraud, extortion.

“Ayol (arabcha: oila; xotin) — balogʻatga yetgan xotin-qiz jinsidagi inson, oadm bolasini dunyoga keltiruvchi ikki jinsdan biri umuman erkakka qarama-qarshi jinsdagi shaxs, xotin”¹

Ayol, bu muqaddas ona, aziz opa-sinngil, go'zal rafiqa va shirin farzanddir. U go'zallik, mexr, vafo, ishonch ramzi, qolaversa dastlabki bilim va ko'nikma maktabidir. Uni qancha ezozlasak, ulug'lasak, xizmatini qilsak shuncha kam. Muqaddas Islom dinimiz ham ota-onani, ayniqsa onaning haqqi va darajasini yuksakka ko'targandir,

¹ Wikipediya ochiq ensiklopediya.<https://uz.wikipedia.org/ayol>

buni quyidagi hadisi sharif orqali ham etirof eta olamiz: “Imom Ahmad ibn Hambal Joxima roziyallohu anxudan qilingan rivoyatga ko'ra, yordamga muxtoj onasini qo'yib, jihodga ruxsat so'rab kelgan yigitga Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: “*Sen uni (onani) lozim tut, jannat uning oyog'i ostidadir*”, deganlar”². Onani bunday qadirlash bejiz yemas, chunki xar bir insonni ona dunyoga keltiradi va xayotdagi dastlabki yo'lga u yetaklaydi. Ammo panjara ortida o'tirgan onani bir tassavur qilib ko'rganmisiz? Ayniqsa farzand buni xis etsa qay ahvolga tushishinichi? Onasini farishta sifatida ko'rib, kelajakda unga ko'plab yaxshiliklar qilish niyatida yurgan o'g'il yoki unga o'xshashni orzu qilib yurgan qiz, validai muhtaramasining o'g'ri, firibgar yoki qo'shmachi ekanini bilgach, qanday ahvolga tushadi? Avvalo shuni alohida ta'kidlab o'tishni istardimki, inson hech qachon o'z-o'zidan huquqbuzar yoki jinoyatchi bo'lib qolmaydi. Bunga uning yoshligidan olgan tarbiyasi, oilaviy va tashqi muhit, atrofidagi kishilarining qarashlari, munosabatlari va ularning jinoyatchi shaxs xayotida tutgan o'rinlari ham katta ta'sir ko'rsatadi. Shukrki, yurtimiz tinch, hayotimiz farovon. Xalqimiz ayolni kelajak yaratuvchilarining tarbiyachisi, oila farishtasi va jamiyatda o'z mavkeiga ega faol inson sifatida hurmat qiladi va e'zozlaydi. Lekin ba'zi ayollarning o'z sha'niga nomunosib tarzda jinoyatga qo'l urayotganligi achinarli bo'lsa ham, achchiq haqiqatdir.

Ilmiy statistika asoschilaridan biri, belgiyalik sotsiolog va kriminolog A.Ketle jinoyatchilikning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganib, “jinoyat sodir etishga moyillik odamning yoshi, *jinsi*, kasbi, ma'lumoti darajasi, yilning mavsumi kabi omillarga bog'liq bo'ladi” degan fikrni ilgari surgan, bundan kelib chiqadiki ayolar jinoyatchiligini o'rganish uchun, alohida yo'ndashuv bo'lishi lozim.

Italiyalik kriminolog Enriko Ferrining fikricha, “ayollar erkaklarga qaraganda shafqatsizroq bo'lib, «ashaddiy» retsivist ayollar o'z qilmishlaridan, eng beshafqat jinoyatchi erkaklarga nisbatan ham kamroq pushaymon bo'ladilar, bu ularda onalik funksiyalarini bajarishlari oqibatida sodir bo'ladi, mazkur funksiyalarni bajarish shu qadar ko'p kuch talab qiladiki, natijada ayollarning biologik rivojlanishi sekinlashadi va ruhiy rivojlanish darajasiga ko'ra ular bolalar bilan katta odamlar o'rtasida turadi”, deydi. Ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar xususan odam o'ldirish jinoyatlarini samarali tergov qilish, aniqlangan dalillar asosida ayblilik holatini isotlash uchun keng va chuqur psixologik, psixatrik, tibbiy, irsiy omillarning ta'siri o'rganilganda, ayollarning tuban xulq-atvorining eng tipik ko'rinishlaridan biri ular tomonidan o'z chaqalog'ini o'ldirish holatlari aniqlandi. Farzandkushlikning ko'payishi sabablarini o'tmishdagi oilaviy negizlarning ijtimoiy bo'htonlar ta'sirida buzilganligi, yangi turmush tarzi hali yaxshi mustahkamlanib ulgurmaganligi bilan izohlanadi. Buning natijasida jamiyatda jinsiy munosabatlarga yengiltaklik bilan qarash kuchaydi. Bu

² Shayx Muhammadsodiq Muhammadyusuf. Hadis va xayot.1-juz.-T.: ”Hilol nashr”,2022.

yengiltaklik, nikohsiz homiladorlikni va nikohsiz tug‘ilgan bolalar sonini o‘shiga olib keldi. Bu esa o‘zining ijtimoiy jihatdan og‘ir ahvolidan qanday yo‘l bilan bo‘lmasin qutulishni istagan ayollar sonining ortishiga sabab bo‘ldi. O‘zbekistonda ham boshqa chet el davlatlardagi singari onaning o‘z chaqalog‘ini o‘ldirishi ayollarga xos jinoyat bo‘lib, odam o‘ldirishning boshqa turlaridan farqli o‘laroq, yangi tug‘ilgan chaqaloqni o‘ldirish qishloq joylarida ham tarqalgan. Qator hollarda bu jinoyatlarning orqasida aybdorning eri yoki jazmani turadi. Bunning natijasida ushbu toifadagi shaxslarni tergov qilishda tergov harakatlarini o‘tkazishning alohida psixologik-taktik usullarini foidalanishni taqozo etadi.

Statistika ma‘lumotlari ayollar jinoyatchiligi tuzilishida iqtisodiyot sohasidagi jumladan, o‘g‘rilik, firibgarlik shuningdek bezorilik, qo‘shmachilik, giyohvandlik vositalarini tayyorlash va o‘tkazish kabi «umumiy» jinoyatlarning salmog‘i ancha kattaligidan dalolat beradi. Odam o‘ldirish, badanga shikast yetkazish kabi jinoyatlarni ayollar ko‘pincha oilaviy-maishiy mojarolar negizida sodir etadilar.

Ayollar tomonidan sodir etilayotagan jinoyatlarni tergov qilishni samarali olib borish va o‘tkaziladigan tashkiliy, psixologik, protsessual hamda tergov harakatlaridan kutilgan natija erishish uchun ularning shaxsiga xos xususiyatlari va ular sodir etadigan jinoyat turlariga qarab quyidagi tiplarga ajratishimiz muhim ahamiyat kasb etadi:

“birinchi tip - bu «past malakali» shaxsdir. Bular ma‘naviy, ruhiy ,psixologik va fiziologik jihatdan buzilgan odamlar, ijtimoiy nuqtai nazardan ma‘lum darajada tubanlashgan shaxslardir. Ular, odatda, spirtli ichimliklarni suiiste‘mol qiladi, jinoyatlar sodir etish bilan bir qatorda tasodifan uchragan ishlarni bajarib, kun kechiradi, ba‘zan doimiy turar joyga ega bo‘lmasdan daydilik qiladi. Bunday ayollar asosan o‘zganing mulkini oz miqdorda takroran o‘g‘irlash jinoyatlarini sodir etadi. Jumladan, ular odamlar ko‘p yig‘iladigan joylar (aeroportlar, vokzallar, maktablar, bolalar bog‘chalari, qariyalar uylari va hokazolar)da qarovsiz qolgan buyumlarni o‘g‘irlaydi. Bunday shaxslar uchun jinoiy faoliyat asosiy tirikchilik manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bu ayollarning ko‘pchiligi oilasiz, doimiy turar joyga ega emas, tamagirlik jinoyatlari uchun takroran sudlangan daydilik uchun ushlangan, onalik huquqidan mahrum etilgan shaxslardir.

ikkinchi tip - professional jinoyatchi ayollar tipi bo‘lib, ularni shartli ravishda «g‘araz maqsadli zo‘ravon» tip deb nomlashimiz mumkin. Bular odatda, yosh professional jinoyatchi ayollar, alohida hollarda esa hatto voyaga yetmagan shaxslardir. Mazkur shaxs tipining yosh chegaralari 17-35 yosh bo‘lib, O‘ziga xos xususiyatlari: jinsiy hayoti tartibsiz, ma‘lumoti (to‘liq o‘rta) va kasbiy malakasi pastligiga qaramay, moddiy ehtiyojlari ancha baland bo‘ladi. Ular, odatda, erkaklarning guruhlarida tarkibida g‘araz maqsadlarda-zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etadi, mazkur guruhlarda ba‘zan yetakchi mavqega ega bo‘ladi. Shuningdek mazkur tipga mansub ayollar orasida fohishalar, giyohvandlik vositalarini iste‘mol qiluvchilar

ko'p bo'lib, ular jinoiy faoliyatda yordamchi, dalolatchi yoki tashkilotchi vazifasini bajaradi.

uchinchi tip - odatda bir o'zi yoki erkak bilan (kamdan-kam hollarda - ayol bilan) ishtirokchilikda jinoyat sodir etadigan yuqori darajada professional o'g'ri va firibgar ayollardir. Bunday shaxslar jinoyatlarga puxta tayyorgarlik ko'radi, jabrlanuvchilarning xatti harakatlari, jinoyat izlarini yashirish va hokazolarning mumkin qadar barcha variantlari nazarda tutib, jinoyat sodir etish uchun qulay joy, jinoyat quroli va vositalari tanlab olinadi. Bunday tipdagi ayollarning yoshi 27-50 yosh doirasida bo'ladi. Yosh ayollar ko'pincha jinoyatni ishtirokchilikda sodir etadi. Bunday ayollarning oilasi odatda buzilgan yoki faqat rasman saqlanib qolgan bo'ladi. Bunday ayollar orasida maxsus retsidivning salmog'i ancha kattadir. Jinoyat sodir etish uchun «gastrol»ga chiqish, har xil o'g'rilik qilishga mo'ljallangan moslamalardan, soxta hujjatlar, pul kupyuralari va hokazolardan foydalanish holatlari keng tarqalgan.

to'rtinchi tipni - jinoyatchilar orasida «o'g'rilar onasi» deb atash qabul qilingan bo'lib, bu jinoyat olamida mazkur toifaga mansub ayollarning tutgan o'rmini ifoda etadi. Mazkur tipga mansub ayollarning yoshi ko'pgina hollarda 40-55 yosh doirasida bo'lib, ular fohishaxonalar va giyohvandlik vositalari iste'mol qiluvchilar uchun bangixonalarning saqlovchilari, qo'shmachilar, o'g'rilik mollar va giyohvandlik vositalari sotib oluvchilar va sotuvchilaridir. Bu toifaga mansub jinoyatchilarni boshqa professional jinoyatchi ayollarga qaraganda qo'lga olish anchagina qiyin hisoblanadi. Ularning g'ayriijtimoiy qarashlari va hayotga munosabati turg'un. Jinoyat olami vakillari bilan ular har tomonlama, shu jumladan, mintaqalararo aloqalarga ega. Bunday ayollar jinoiy an'ana va udumlarning faol tarqatuvchilari bo'lib, yoshlar va voyaga yetmaganlarni g'ayriqonuniy faoliyatga jalb etadi. Ularning ko'pchiligi, odatda, oilasiz bo'lib, muvaffaqiyatsiz oilaviy hayotning muqobili sifatida mana shunday jinoiy faoliyatni tanlagan. Bunday ayollar kirishimli, irodali va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'ladi.

beshinchi tip - «Oq yoqalilar» deb nomlanuvchi professional jinoyatchi ayollardir. Bu yerda turli moddiy ishlab chiqarish sohalarida, kredit-moliya va bank tizimlarida, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish sohalarida o'zganing mulkini talon taroj qilish, mansab va xo'jalik jinoyatlarini sodir etishni kasbga aylantirgan jinoyatchi ayollar nazarda tutiladi. Ular ijtimoiy nuqtai nazardan ancha yaxshi hayot kechiradi (oilali, farzandlari bor), boshqa tip vakillariga qaraganda ma'lumot darajasi ancha yuqori va yaxshi ta'minlangan, ammo, shu bilan birga, o'z jinoiy faoliyati natijasida ular jamiyatga eng ko'p miqdorda moddiy zarar yetkazadilar. Ular ko'pincha uyushgan jinoiy guruhlarining vakillari bilan bevosita bog'liq bo'ladi yoki bunday guruhlarda faol ishtirok etadi. Professional jinoiy faoliyat xizmat, ishlab chiqarish va mansab

vakolatlarini bajarish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu yuqorida zikr etilgan shaxs tipining asosiy o‘ziga xos jihati hisoblanadi.”³

Bundan tashqari ayollar jinoyatini tergov qilishda olib boriladiga tergov harakatlaridan eng samaralilari so‘roq va yuzlashtirishdir. So‘roqda dastlabki ma‘lumotlarni batafsil olishga harakat qilishga qaratilgan savollar orqali ish holatini oydinlashtirishga harakat qilamiz. “Yuzlashtirish natijalari bo‘yicha sutishtiruvchi yoki tergovchi ishning haqiqiy holatini aniqlaydi, shuningdek ilgari so‘roq qilingan shaxslarning ko‘rsatmalaridagi jiddiy ziddiyatlarni bartaraf etadi.”⁴

Umuman olganda shuni takidlashimiz mumkinki, ayollarni tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni tahlil qilish va shu asnosda tegovni olib borishni tashkil etishda doimiy ravishda ularning ma‘naviy, ruhiy, demografik, psixologik va fiziologik jihatdan o‘rganinsh muhim hisoblanib, ular bilan olib boradigan kriminalistik-taktik, tashkiliy, psixologik, protsessual hamda tergov harakatlaridan kutilgan natija erishishimizda uchun alohida muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa o‘rnida shuni takidlashimiz mumkinki, bu tiplarga mansub barcha ayollar ham avvalo insondir. Ular doimiy ravishda jamiyatning turli bo‘g‘inlarida ayniqsa oilaviy munosabatlarda yetakchi ro‘lni o‘ynovchi shaxs hisoblanishadi. Ular bilan bo‘ladigan munosabatlarda manashu ommilni etibordan qochirmasligimiz shuningdek jinoyat yoliga kirib qolgan ayollarga nisbatan o‘tkaziladigan har bir tergov va protsessual harakatlartimizda odillik, qonuniylik, demokratizm, insonparvarlik prinsiplariga tola asoslangan holatda, xolisona, xar tomonlama va adolat bilan ish yuritib, yakuniy qarorga kelish lozimdir. Shundagina muslima ayollarimizga panjara ortidan emas balki, ularning haqiqiy joyi bo‘lgan oilasi bag‘rida ko‘ramiz va bu orqali ayollarimizni hamda boshqa fuqarolarimizni shu o‘rinda butun dunyo jamoatchiligini ham davlatimiz adolatiga ishonchini mustahkamlay olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Wikipediya ochiq ensiklopediya.<https://uz.wikipedia.org/ayol>
2. Shayx Muhammadsodiq Muhammadyusuf. Hadis va xayot.1-juz.-T.: ”Hilol nashr”,2022.
3. Абдурасулова Қумринисо Раимқуловна. Аёллар жиноятчилиги ва уларнинг олдини олиш муаммолари. Ўқув қўлланма / Масъул муҳаррир: ю.ф.д.,проф. М.Ҳ.Рустамбоев. - Т.: ТДҲИ нашриёти, 2009. -161 бет.

³ Абдурасулова Қумринисо Раимқуловна. Аёллар жиноятчилиги ва уларнинг олдини олиш муаммолари. Ўқув қўлланма / Масъул муҳаррир: ю.ф.д.,проф. М.Ҳ.Рустамбоев. - Т.: ТДҲИ нашриёти, 2009. -161 бет.

⁴ Абдуллаев.А.В. “Гувоҳнинг ёки жабрланувчиларнинг била туриб ёлғон кўрсатув бериши жиноятлари бўйича юзлаштириш ўтказишнинг ўзига хос хусусиятлари”. Илмий мақола <https://in.academy.uz/index.php/EJFAS/article/view/9191> (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 19.04.2023 й).

4. Абдуллаев.А.Й. “ Гувохнинг ёки жабрланувчиларнинг била туриб ёлгон кўрсатув бериши жиноятлари бўйича юзлаштириш ўтказишнинг ўзига хос хусусиятлари”. Илмий мақола <https://in.academy.uz/index.php/EJFAS/article/view/9191> (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 19.04.2023 й).